



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“ZAMONAVIY YOSHLARNING ILMIY VA INNOVATSION TASHABBUSLARI: YANGIJOHA YONDASHUVLAR VA TRANSFORMATSIYALAR”

I respublika talabalar ilmiy-amaliy anjumani

**I Sho'ba: Yangi O'zbekistondagi zamonaviy
ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlarda
talaba-yoshlarning o'rnini va ahamiyati**

2025-yil 27-mart



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**ZAMONAVIY YOSHLARNING ILMIY VA INNOVATSION
TASHABBUSLARI: YANGICHA YONDASHUVLAR VA
TRANSFORMATSIYALAR**

**II-TALABALAR ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

*I-Sho‘ba. Yangi O‘zbekistondagi zamonaviy ta’lim va ilm-
fan sohasidagi islohotlar talaba-yoshlarning o‘rni va ahamiyati*

2025-yil 27-mart

I QISM

TOSHKENT – 2025

1. Bogomolova A. A. ekologik mavzulardagi matnlarni tarjima qilish xususiyatlari // fan Byulleteni №6 (63) 2-jild. 607-610-betlar. 2023 yil ISSN 2712-8849 // elektron resurs: <https://www.вестник-науки.рф/article/8855>
2. Mansurova N.A. Tilshunoslikda terminologiya masalalari // FarDu ilmiy xabarlar, 2022. – № 5. – 168-171- b. (10.00.00; № 20)
3. Айзенкок С.М., БагдасароваЛ.В.,Васина Н.С., Глущенко И.Н. «Научно– технический перевод». - Ростов–на–Дону: Феникс, 2003
4. Nurmonov A., Madvaliev A., Mahkamov N. Development of Uzbek linguistics during independence // Uzbek language and literature. – Tashkent, 2011. – No 3.
5. Djurabaeva Z., Ecological terms: problems and solutions. // A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.- VOLUME 7, ISSUE 10, Oct. -2021.

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA MASOFAVIY TA'LIM MUAMMOLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Xaydarova Zilola Normurodovna

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Husaynova Orzigul O'ktam qizi

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti talabasi

Hozirgi globallashuv davrida xorijiy tillarni o'qitish talim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida an'anaviy ta'lim shakllari bilan bir qatorda masofaviy ta'lim ham keng tarqalmoqda. Ayniqsa COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'limga zarurat kuchayib, ta'lim muassalari onlayn o'qitish usullariga moslashishga majbur bo'ldi.

Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktab, kollej, litsey, keyinchalik institutlarda xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usulla, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganishga yordam beruvchi asosiy ma'lumot to'plamlari bilan tanishgan holda o'rganadilar. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchilar va talabalar xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullari bilan tanishishlari kerak. Kompyuter, telefonlardagi til o'rgatuvchi proqrammalar ham boshlang'ich va o'rta bosqichda til o'rganishga yaxshi yordam beradi. Talk (English speaking practice), Daily English, Learn English (English master) kabilarni misol qilsak bo'ladi. Bu proqrammalar shunday tuzilganki, ularda reading (o'qish), listening (eshitish), test bo'limlarining barchasi o'rin olgan. O'rganilgan yangi so'zlarni telefon diktafoniga yozdirib, bo'sh vaqtlarda eshitish takrorlash uchun yana

bir yaxshi usul. Bundan tashqari ingliz tilidagi subtitrlar filimlarni, multifilmlarni ko'proq ko'rsatish ham til o'rgatishda samarali usullardan hisoblanadi, o'quvchini shu tilga bo'lgan muhabbatini oshiradi. Multimediya orqali o'qitish o'qituvchiga katta imkoniyatlar beradi. Multimediya (multi-ko'p, mediya-muhit) – bu kopyuter texnologiyalarining soxasi bo'lib, turli axborot saqlovchi vositalaridagi turli fizik ko'rinishda ifodalangan axborotlarga ishlov beradi. Multimediya – bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanib, interfaol dasturiy ta'minot ostida boshqariladigan video va audio effektlarning o'zaro bog'liqligi bo'lib, matn, tovush, grafika, foto, videoni birlashtiradi. Bunda ma'lumot turli axbotot tashuvchilarida mavjud bo'lishi mumkin (magnit va optik disklar, audio va video tasmlar). [1]

Onlayn ta'lim geografik to'siqlarni yo'q qiladi. Butun dunyo bo'ylab o'quvchi va talabalarga chet tili kurslarini hamda haqiqiy madaniy tajribalardan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi, global miqyosda til va madaniy tushunishni kengaytiradi. Bundan tashqari, onlayn platformalar, interfaol vositalar, real vaqt rejimida muloqot va multimediya resurslarini taklif etadi. Ular tilni o'rganishda qiziqarli va chuqur o'rganish tajribasini rivojlantiradi, amaliy til ko'nikmalarini oshiradi va o'quvchilarning haqiqiy til mareriallari bilan o'zaro munosabatda bo'lishiga imkon beradi.

Onlayn til kurslari o'quvchilarni turli millatdagi tengdoshlari va ona tilida so'zlashuvchilar bilan bog'laydi, global hamjamiyatni rivojlantiradi va haqiqiy madaniyat almashinuvi uchun imkoniyatlar yaratadi, til va madaniyatlararo kompetentseyani boyitadi. [2]

Hozirda ko'plab seminar – treninglar konfirensiyalar tashkil qilinish jarayonida qatnashchilar uchun qulaylik va vaqtni to'g'ri taqsimotini taminlash maqsadida onlayn ya'ni masofaviy tarzda tashkil qilinmoqda. Bunda uzoq hududdagi mutaxassislarning faol qatnashishini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masofaviy ta'limni tashkil etish jarayonida elektron-uslubiy majmualardan foydalanish ta'lim samaradorlisini tanada oshirishga xizmat qiladi.[3]

XXI asrga kelib, o'qituvchining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli vositalarning kun sayin rivojlanib borishi o'qituvchidan yuksak maxoratni, o'tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo'lish bilan bir qatorda raqamlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiladi. Raqamlashtirish terminiga to'xtaladigan bo'lsak, “Raqamlashtirish”, “raqamli ta'lim” atamasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini mustahkamlash bilan bog'liq holda paydo bo'ldi. E.L. Vartanova, M.I.Makseenko, S.S.Smironov bu tushunchani axborotni raqamlarga tarjima qilish va shu bilan birga, ta'limning infratuzilmaviy, boshqaruv, xulq-atvor va madaniy komponentlari deb hisoblaydilar.

Raqamli ta'lim – ta'lim jarayoniga yordam beradigan va aniq natijalarga olib keladigan o'quv amaliyotidir. U nafaqat raqamli ta'lim vositalari orqali o'quv jarayonini davom ettirish, balki ta'lim sifatini va samarasini yanada oshirishga xizmat qiladi. O'quv jarayoniga raqamli ta'limni joriy qilinishi axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi.[4]

Masofaviy til o'rganishning muammolari:

1. Jonli muloqotning yetishmovchiligi:

Til o'rganishning eng muhim jihatlaridan biri-jonli suhbatdir. Masofaviy o'qish esa ko'pincha yozma topshiriqlar va darslarga asoslangan bo'lib, bu og'zaki nutqni rivojlantirish imkoniyatini cheklaydi;

2. Texnik muammolar:

Masofaviy o'qish yaxshi internet aloqasi, zamonaviy qurilmalar va dasturiy ta'minot talab qiladi. Internet sifati past bo'lsa yoki texnik nosozliklar yuzaga kelsa, dars jarayoni to'xtab qolishi mumkin;

3. Amaliyot uchun cheklangan imkoniyatlar:

Tilni samarali o'rganish uchun uni real hatotda qo'llash kerak. Masofaviy o'qishda esa chet tilida muloqot qilish imkoniyatlari kam bo'lishi mumkin. Bu o'quvchilarning tilni tezda o'zlashtirishiga to'sqinlik qiladi;

4. O'qituvchi bilan individual ishlash imkoniyatining kamligi:

An'anaviy darslarda o'qituvchi har bir o'quvchining xatolarini tezda tuzatadi va bunga individual yondashadi;

5. Ijtimoiy aloqaning kamligi – chet tilini o'rganishda gurux bilan ishlash jamoaviy muhokamalar va rol o'ynash mashqlari katta ahamiyatga ega. Masofaviy talimda bu imkoniyatlar kam bo'lishi natijasida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalashda qinalishlari mumkin.

Muammolarning yechimlari:

1. Jonli muloqot imkoniyatlarini kengaytirish|:

Onlayn suxbat guruxlarini yaratish – o'quvchilarni tilni amaliy qo'llashlari uchun maxsus chatlar va guruxlar tashkil qilish. * Til klub va muxokama guruxlari – o'quvchilarni bir-birlari bilan chet tilida muloqot qilishlari uchun maxsus onlatn yoki virtual uchrashuvlar tashkil qilish. *Chet elikklar bilan suxbat, til o'rganayotganlar ona tilida so'zlashuvchilar bilan amaliy muloqot qilishi uchun platformalardan (masalan Tandem, HelloTalk, Speaky) foydalanish;

2. O'qituvchilar va O'quvchilar yaxshi internet va texnik vositalar bilan ta'millangan bo'lishi kerak. O'qituvchilar darsga oid bo'lgan platformalar bilan tanish bo'lishi va o'quvchilariga eng yaxshilarini tavsiya qilish bilan birga ularni nazoratini tekshirib borishlari lozim;

3. Amaliyot va interaktiv ta'limni kuchaytirish. Virtual va kengaytirilgan reallikdan foydalanish-ya'ni real vaziyatlarga asoslanga mashg'ulotlar yaratish va qo'llash. Bundan tashqari filmlar, podkastlar va audio darslardan foydalanish orqali o'quvchilarni ko'proq chet tilida kontent iste'mol qilishga undash bilan o'rganuvchilarning yaxshi til o'zlashtirishiga ko'maklashish;

4. O'qituvchi bilan individual ishlash imkoniyatini yaxshilash. 1:1 onlayn darslar, har bir o'quvchi bilan individual shug'ullanishga e'tibor qaratish ; Feedback tizimini rivojlantirish – o'quvchilarning nutqiy xatolarini tezda tuzatish uchun maxsus baxolash tizimlarini yaratish;

5. Onlayn forum va bloglar - o'quvchilar o'z fikrlarini yozma ravishda ifodalash va o'zaro fikir almashishlari uchun blog yaratish va forumlarda qatnashish;

6. Ijtimoiy aloqani oshirish va jamoaviy ishlash. Jamoaviy loyihalar va topshiriqlarni birgalikda bajarish misol uchun birgalikda maqola yozish, onlayn spektakllar tayyorlash va shu kabilar ; jonli efirlar va webinarlar uyushtirish, til o'rgatuvchi mutaxassislar bilan jonli suxbatlar tashkil qilish. Yana chet eldagi talabalar bilan hamkorlik qilish ham mumkin. Turli mamlakatdagi o'quvchilar bilan hamkorlikda loyiha olib borish va xalqaro aloqalarni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda masofaviy til o'rganishni rivojlantirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish, real hayotiy amaliy mashg'ulotlarni bajarish muhim. Masofaviy til o'rganish jarayonini yanada samaraliroq qilish uchun texnologik innovatsiyalar va jonli muloqotni umumlashtirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Shoxsanam Qobiljon qizi Mo'yiddinova – Xorijiy tillarni o'qitishda multimediya texnologiyalarining ahamiyati - VOLUME 2/ CSPI CONFERENCE 2 // 2021.

2. Yoqubjonova Nigina Akmaljon qizi – Xorijiy tillarni o'qitishda online ta'limning yutuq va muammolari.

3. Umarjonova Nodira Abdukhamid qizi – THE ROLE OF E-LEARNING METHODOLOGICAL COMPLEXES IN STAFF DEVELOPMENT. // 2022

4. Umarjonova Nodira Abdukhamid qizi – THE ROLE OF E-LEARNING METHODOLOGICAL COMPLEXES IN STAFF DEVELOPMENT. // 2022

5. Haydarova, Z. N. (2024). INNOVATIVE METHODS AND PEDAGOGICAL–PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF DIGITAL LITERACY IN MODERN STUDENTS. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(10), 27-31

6. Normurodovna, H. Z. (2024). Building Digital Literacy As An Editorial Problem. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(4), 56-64

7. Haydarova, Z. N. (2024). MOTIV VA MOTIVATSIYA - O., QUVCHINING QIZIQISHLARI, BILISH DARAJASI HAMDA IJTIMOY MUHIT TA'SIRIDA SHAKLLANADIGAN OMIL SIFATIDA. SOHIBQIRON YULDUZI Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal, № 1-Maxsus son 2024 yil, 29-36.

8. Haydarova, Z. N., Husaynova, O.O'. (2024). RAQAMLI O'RGANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA FAN O'QITUVCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. Zamonaviy ta'lim va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024 yil. 17-oktyabr.,

YANGI O'ZBEKISTONDA ONLAYN TA'LIM TIZIMIDA KIBERXAVFSIZLIK PLATFORMALARINING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI

Temirbekov Sayfiddin Farxodjon o'g'li

Andijon Davlat texnika instituti talabasi

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan O'zbekistonda onlayn ta'lim tizimi jadal rivojlanmoqda. Elektron ta'lim platformalari, masofaviy darslar va virtual laboratoriyalar orqali ta'lim jarayoni takomillashtirilmoqda. Biroq, onlayn ta'lim tizimining kengayishi bilan birga kiberxavfsizlik masalalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shaxsiy ma'lumotlarning himoyalaniishi, platformalar xavfsizligi va kiberhujumlarning oldini olish O'zbekiston ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Onlayn ta'lim platformalarida talabalarning shaxsiy ma'lumotlari, baholash natijalari va akademik yozuvlari saqlanadi. Shu sababli, ushbu tizimlar kiberjinoyatchilar uchun asosiy nishon bo'lib qolmoqda. Kiberxavfsizlik ta'minlanmasa, ma'lumotlarning buzilishi, ruxsatsiz kirishlar va identifikatsiya xatoliklari sodir bo'lishi mumkin. Shuning uchun kuchli autentifikatsiya tizimlari, shifrlash usullari va xavfsizlik devorlarini joriy etish zarur.

Kelajakda onlayn ta'lim platformalarining kiberxavfsizligi yanada mustahkamlanishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan xavfsizlik tizimlari, biometrik autentifikatsiya va blokcheyn texnologiyalari orqali talabalarning ma'lumotlarini himoya qilish rejasi mavjud. Bundan tashqari, kiberxavfsizlik bo'yicha milliy strategiyalar ishlab chiqilib, universitetlar va ta'lim muassasalarida maxsus kiberxavfsizlik kurslari joriy qilinishi rejalashtirilgan.

MUNDARIJA

TALABANING FAMILIYASI, ISMI, OTASINING ISMI	MAQOLA MAVZUSI	BETLAR
	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist RUSTAMBAYEV MIRZAYUSUP xakimovichning II-respublika talabalar ilmiy-amaliy anjumani ishtirokchilariga MUROJAATI	3-5
<i>Inatullayeva Mohigul</i>	O‘zbekistonda ilm-fan sohasidagi talaba-yoshlarning o‘rni va ahamiyati	6-7
<i>Omonova Madinabonu</i>	Shayboniylar hukmronligi davrida me‘morchilik: buxoro me‘morchiligi	8-12
<i>Qoraxo‘jayev Saydullo</i>	Abdulla avloniy va uning hayotiy saboqlari	12-15
<i>Jahongirova Munira</i>	Mirzo muhammad haydarning "tarixi rashidiy" asarida shayboniylar va bobur munosabatlari	15-19
<i>Davlatboyeva Vasila</i>	Turkistonda matbuotning shakllanishi	19-25
<i>Ermatova Zulfiya Abdug‘aniyevna</i>	Imom al-buxoriyning hayot yo‘li hamda hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi	26-30-
<i>Po‘latov Ro‘zimurod Farhod o‘g‘li</i>	Yangi o‘zbekistonda – milliy iqtisodiyotni rivojlantirish	30-35
<i>Abdumajidova Komila Abrorbek qizi</i> <i>Abujakinova O‘g‘iljon Risqali qizi</i> <i>Mamajonov Sardor Zulfiqor o‘g‘li</i>	Tasviriy san‘at fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuv	35-38
<i>Muxtorova Zarinaxon Zarifjon qizi</i>	Developing innovative approaches to professional education in a modern multicultural environment	38-43
<i>Botirova Hilola Asqad qizi</i>	Yangi o‘zbekistondagi zamonaviy ta‘lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar talaba-yoshlarning o‘rni va ahamiyati	43-45
<i>Djunaydullayeva Kamila Yunusovna</i>	Maktabgacha ta‘lim yoshdagi bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yangi o‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning o‘rni	45-48
<i>Ozoda Ochilova Bahodir qizi</i>	INTERNET VA IJTIMOY TARMOQLARNING INSON RUHIYATIGA TA’SIRI	48-53
<i>Tashmetova Aziza Sagdullayevna</i>	The benefits of learning foreign languages in the process of globalization	53-56
<i>Qurbonazarova Shaxzoda Erkin qizi</i>	Interfaol ta‘lim metodlarining ahamiyati	56-59
<i>Ramazonova Salomat Saidovna</i>	Yangi o‘zbekistondagi zamonaviy ta‘lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar talaba	59-61

<i>N.I.Reyimova</i>	Matematika va informatika o'qituvchisini innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash usullari va tamoyillari	275-277
<i>Azimjonova Mohichexra Bunyodbek qizi</i>	Maktabgacha ta'limda steam texnologiyasidan foydalanishni o'rganish	278-280
<i>Shuhrataliyeva Rayhona</i>	Ilm-fan sohasida talabalar uchun berilayotgan imkoniyatlar	280-284
<i>Mahmudova Ruhshona Zohidjon qizi</i>	Innovative teaching methods for generations alpha & beta in uzbekistan	284-288
<i>Rasulova Dilsora Bekturod qizi</i>	Yangi o'zbekistonda zamonaviy she'riyatning fan sohasidagi o'rni	289-293
<i>Зокирова Фарангиз Батыровна</i>	Важность формирования гражданской позиции в молодежной деятельности	293-297
<i>Nurmatova Nozima Jamol qizi</i>	Yangilanayotgan o'zbekistonda yoshlarda liderlik qobiliyatini shakllantirishning zaruriyati	298-301
<i>Sodiqova Shahzoda Sirojiddin qizi</i>	Axborotning talabalarining ta'lim olish jarayonida tutgan o'rni va ahamiyati.	302-305
<i>Nabiyev Sherzod Baxrom o'g'li</i>	Amir temur ibn tarag'ay bahodirning hindistonga yurishi ilmiy-siyosiy talqinda.	305-308
<i>Raximberganova Malika Qurolbek qizi</i>	Hozirgi zamon yoshlarining ijtimoiy tarmoqlarga qaramligi va uning inson ongidagi psixologik ta'siri	308-311
<i>Rixsiboyeva Muazzam Mohirjon qizi</i>	Innovation g'oyalar va startaplar: o'zbekiston yoshlari tomonidan yaratilayotgan zamonaviy yechimlar	311-315
<i>Turg'unova Nigora Rustamjon qizi</i>	Ingliz tilidagi ekologiyaga oid terminlar va leksik birliklarning o'zbek tiliga tarjima qilishdagi muammolar	316-318
<i>Husaynova Orzigul O'ktam qizi</i>	Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'lim muammolari va uni rivojlantirish yo'llari	319-322
<i>Temirbekov Sayfiddin Farxodjon o'g'li</i>	Yangi o'zbekistonda onlayn ta'lim tizimida kiberxavfsizlik platformalarining rivojlanishi va istiqbollari	323-330
<i>Xoliqova Ruhshona Javohir qizi</i>	Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim va tarbiyalash konsepsiyasi	330-333
<i>Erkinov Shoxrux</i>	9-10 yosh o'quvchilarning gimnastika mashg'ulotlarida egiluvchanlik sifatini rivojlantirish.	333-338
<i>Varisova Begoyim Rivojiddin qizi</i>	Yangi o'zbekiston yoshlarida huquqiy madaniyatni yuksaltirish ma'rifatli jamiyatni rivojlantirish yo'li sifatida	339-342
<i>Mamatqulova Dilbar Sattorqul qizi</i>	Yoshlarning ma'naviy immunitetini kuchaytirishda besh tashabbusni tatbiqi	343-347

<i>Boboqulov Sarvar Choriyevich</i>	Yoshlarning ta'lim tizimidagi innovatsiyalari: masofaviy ta'lim va masofaviy o'qitishning yangi imkoniyatlari	348-350
<i>Eshonova Mubina Murodjon qizi</i>	1917-1991-yillarda o'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji	351-356
<i>Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi</i>	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining innovatsion faoliyati	356-359
<i>Mamatqulova Dilbar Sattorqul qizi</i>	O'zbekiston – yoshlar mamlakati	359-362
<i>Bozorboyeva Farangizbonu Baxtiyor qizi</i>	O'zbekistonda xotin-qizlarning ta'lim olish huquqlari va ular uchun ta'lim sohasida yaratilayotgan imkoniyatlar	362-365
<i>Norboyev Xudoyberdi Azamat o'g'li</i>	Zamonaviy yoshlarning ilmiy va innovatsion tashabbuslari: yangicha yondashuvlar va transformatsiyalar	366-367
<i>Mahmudova Muborak Azatovna</i>	Shifoxonada uzoq muddat davolanayotgan bolalar uchun ta'lim muhitini yaratish	367-371
<i>Sunnatova Sarvinoz Abror qizi</i>	Yangi o'zbekistonda zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish va o'qituvchi maqomini yuksaltirish masalasi	371-374

**“ZAMONAVIY YOSHLARNING ILMIY VA INNOVATSION
TASHABBUSLARI: YANGICHA YONDASHUVLAR VA
TRANSFORMATSIYALAR” MAVZUSIDAGI
II-TALABALAR ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

*I Sho'ba. Yangi O'zbekistondagi zamonaviy ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar
talaba-yoshlarning o'rni va ahamiyati*
2025-yil 27-mart

I-QISM

Muharrir: X.Xaknazarov.
Texnik muharrir: M.Ibotova.

Bosishga ruxsat etildi: __.__.2025. Buyurtma: № __ Format 60x90/16
Times New Roman garniturasida raqamli usulida bosilgan.
Hajmi:sh.b.t., 0,99 t.-h.t. Adadi: ____ nusxa.

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi